
Rishton tumani IIBga yangi rahbar tayinlandi

Rishton tumani IIB boshlig'i lavozimiga podpolkovnik Mavlonov Shavkatjon Ergashevich tayinlandi. Tuman hokimligi binosida bo'lib o'tgan tanishtiruv marosimida Viloyat IIB boshlig'i Aziz Ikramov, tuman hokimi Bahodir Xoliqov, tuman sektor rahbarlari ishtirok etishdi. Rishton tumani IIB boshlig'i lavozimiga tayinlangan Mavlonov Shavkatjon Ergashevich tanishtirildi. Podpolkovnik Mavlonov Shavkatjon Ergashevich 1975 yilda Farg'ona viloyati Dang'ara tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, oilali uch nafar farzandi bor. Tayinlovga qadar Shavkatjon Mavlonov Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani IIB boshlig'i lavozimida xizmat qilgan.

2023-08-21 20:51:36